

Yaqinlashib kelayotgan Yangi yilingiz qutlig‘ bo‘lsin!



IJODIY PARVOZ



2023-yil dekabr № 12 (127) ✓dsmi.uz ✓nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining
ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy, ijtimoiy gazetasi




Eldor SHERMANOV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Korrupsiya butun insoniyatga,
barcha jamiyatlar asosiga,
iqtisodiy taraqqiyotga zarba
beradigan, qonun ustuvorligini
buzadigan va xalqning davlat
siyosatiga ishonchini keskin
susaytiradigan, demokratik
institutlar rivojiga to‘sinqilik
qiladigan xatarli tahdiddir
va u barqaror rivojlanish
maqsadlariga erishish
borasidagi rejalarimizga ham
jiddiy putur yetkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOEVning
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida
yuksak xalqaro mukofotni topshirish
marosimidagi
nutqidan

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga salbiy
ta’sir ko’rsatuvchi global muammodir. U butun insoniyatga,
barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba
beradi, qonun ustuvorligini buzadi va xalqning davlat
siyosatiga ishonchini keskin susaytiradi.

Shubois, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshikurashish,
jamiyatda ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni
shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z
vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini
bartaraf etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.



KORRUPSIYA – jamiyat va taraqqiyot kushandas

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida
amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning izchilligini
ta’minlash maqsadida 2017-yildan boshlab korruptsiyaga
qarshi kurashish sohasida davlat dasturlarini qabul qilish
amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. O‘tgan davr mobaynida 3 ta davlat
dasturi (2017, 2019, 2021) qabul qilinib, o‘z vaqtida ijrosi
ta’milanmoqda.

Keyingi yillarda davlat organlari faoliyatining ochiqligi,
shaffofigi va hisobdorligini ta’minlash, jamoatchilik
nazoratini kuchaytirishga qaratilgan qator islohotlar
amalga oshirildi, ushbu sohada qonunchilik asoslari
takomillashdi.

Mamlakatimiz ushbu o’tkir muammoning oqibatlarini chuqr
anglagan holda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki,
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli
xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. 2

Donolar so‘zlaydi...

Ilm –
narsalarni
inson aqli
yordami bilan
o‘rganishlikdir.

Abu Ali ibn SINO

O‘quv qunt
beradi, bilim –
sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli
ulug‘dir inson.

Yusuf Xos HOJIB

Odamning umri
avvalida qilgan
ishlari umrining
oxiridagi ishlariga
ham dalolatdir.


Abulqosim
az-ZAMAXSHARIY

Odamda bo‘lsa gar
yaxshi tilak,
Xalq uchun
tebratgusi doim
bilak.

Anbar OTIN

Bugungi sonda

Ona tili –
millatning
ruhidir



Jinoyatning oldini
oladi. Kitob o‘qiganlar
ichida jinoyatchilar kam.
Qamoqxonalarda mutolaani
boshlagan jinoyatchilar
esa, qayta qing‘ir yo‘lga
qadam tashlamasliklari ham
o‘rganilgan

3

Jumboq



O’n nafar mehmon, o’nta
negr bolalarining chinnidan
qilingan haykalchalarini,
ularning qo’shig‘i va ular bilan
o’n ikki kun davom etadigan
daxshatli ZANJILAR orolidagi
taqdir o‘yini sizga qiziqmi?
Unda asar mutolaasiga tezroq
kirishing.

5

Entoni XOPKINS:
Baxt bu tanlovdir



Meni qadrlamaydigan
odamlardan uzoqlashishga
harakat qilaman. Ular mening
qadrimni bilishmaydi, lekin
men bilaman.

8

KORRUPSIYA – jamiyat va taraqqiyot kushandasi

 Shuningdek, ushbu illatga qarshi kurashish borasida huquqiy va institutsional islohotlar tizimli amalga oshirilyapti.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va maxsus vakolatli Agentlik tashkil etilishi bu borada tashlangan muhim qadam bo'ldi. Qolaversa, Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga keng joriy etilyapti.

Xususan, barcha davlat idoralarida komplaens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lg'a qo'yildi. Davlat xaridlari to'liq raqamlashtirildi. Shuningdek, har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksilkorrupsiya forumi o'tkazib kelinyapti. So'nggi yillarda mamlakatimiz "Transparency International" indeksida 42 pog'onaga ko'tarildi va bu borada mintaqamizda eng yuqori o'rinni egallamoqda.

Konstitutsiyamizning 93-moddasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birgalidagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan islohotlar samaradorligi, xalqaro reyting va indekslarda o'z mavqeini sezilarli darajada yaxshilayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilayotir.

Qatar davlati amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy tashabbusi bilan ta'sis etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimi aynan yurtimizda o'tkazilgani O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borayotgan ishlarning yaqqol natijasi, desak mubolag'a emas.

2016-yildan buyon har yili global miqyosda o'tkazilib kelinayotgan ushbu nufuzli tadbiriga Avstriya, Shvetsariya, Malayziya, Ruanda, Tunis va Qatar davlatlari mezbonlik qilgan.

Ushbu xalqaro mukofot har yili Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kunida korrupsiyaga qarshi global kampaniyaga hissa qo'shganlarni e'tirof etish va qadrlash maqsadida topshiriladi. Mukofot korrupsiyaga qarshi

kurashda muhim o'r'in o'ynagan shaxslar va tashkilotlarni taqdirlaydi. Mukofotning asosiy maqsadi nafaqat global miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida namunali va e'tiborga molik harakatlar, ilg'or amaliyotlarni namoyish va e'tirof etish, balki butun dunyo bo'ylab korrupsiyaga qarshi kurash modellarini o'rganish, tajriba almashish, targ'ib qilish va xabardorlikni oshirishdan iborat.

Prezidentimizning ushbu nufuzli tadbirda ishtirok etgani hamda qator aniq taklif va amaliy tashabbuslarni ilgari surgani dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etildi va qo'llab-quvvatlandi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining

**"ongi va qalbi bolalikdan
"halollik vaksinasi" bilan
emlangan yangi avlodni
kamolga yetkazish ustuvor
vazifamizdir. Bu borada
Birlashgan Millatlar**

**Tashkilotining Korrupsiyaga
qarshi ta'lif va yoshlarning
imkoniyatlarini kengaytirish
global resursi dasturini
O'zbekistonda keng joriy
etishdan manfaatdormiz",**
degan so'zleri muhim chaqirqlardan biri bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilligacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqib, hayotga tatbiq etilishi davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida urg'u berilishi qayd etdi.

Umuman olganda, ushbu nufuzli tadbirning mamlakatimizda o'tkazilishi O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zining xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini va bu boradagi har qanday xalqaro hamkorlik uchun ochiqligini yana bir bor isbotladi.

Bu jarayonda yurtimiz aholisining barcha qatlamlari orasida, ayniqsa, yoshlarda korruptsiyaga qarshi murosasiz kurash madaniyatini kuchaytirish katta ahamiyatga ega, albatta. Aslo unutmasligimiz lozimki, korrupsiya bilan kurashish nafaqat davlat organlari va huquqni muhofaza etish tuzilmalarining vazifasi, balki butun jamiyatning va har birimizning muqaddas burchimizdir.

Mikrofon ustida ishslash

Bizning oliy dargohimizda xususan, teatr san'ati fakultetida talabalarga asosan, teatr va kino aktyorligi yo'nalishida dars mashg'ulotlari olib boriladi. Kafedra nomi ham "Sahna nutqi" kafedrasi. Sahna, joy, makon...Teatr va kino aktyorlari bu fanni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Taniqli aktyorlarning iqtiboslarida: "Men uchun teatrda eng muhimi so'z, so'z, so'z" – deyilgan. Lekin teatr, kino, radio, dublyaj san'ati haqida gap ketsa, u yerda ham so'z – eng birlamchi vositaga aylanadi.

**Bahodir MAG'DIYEV,
"Sahna nutqi" kafedrasi dotsenti**

Kuni kecha o'zbek dublyaji sakson besh yoshga to'ldi. O'zbekfilm studiyasida

ko'plab tarixiy faktlarni yig'ib, o'sha davrdan to hozirga qadar shu soha rivojiga hissa

"Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol va munosib ishtirok etdilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi", – deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Sh.M.MIRZIYOYEV



KONSTITUTSIYA – taraqqiyot qomusi

Mamlakatimiz yoshlarini qonun ustuvorligi ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish yo'lida joylarda qator ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari keng miqyosda olib borilmoqda. Shu maqsadda, butun mamlakat miqyosida, shu qatori, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham "Yangi Konstitutsiya – xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va faravon hayotimiz asosi!" shiori ostida bir qancha uchrashuvlar, davra suhbatlari, madaniy tadbirlar uyishtirilmoqda. Bosh qomusimizning qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan, "Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi" tomonidan o'tkaziladigan talabalar o'rtaida "Yangi Konstitutsiya – taraqqiyot qomusi" mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi hamda "Mening konstitutsiyam" mavzusidagi diktantlar tanlovi institutimizning barcha talabalarini qamrab olib, ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Baxtiyor SAMIYEV,

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Undan tashqari, institutimizning "Xalq ijodiyoti" fakulteti "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi tashabbusi bilan tashkil etilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasing mazmun-mohiyatini o'rganish" bo'yicha dars mashg'uloti ham juda qiziqali va mazmunli o'tdi. Ushbu dars mashg'ulotini, ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi Gulchehra Umaraliyeva va madaniyat va san'at menejmenti kafedrasi mudiri t.f.n. dotsent To'rabet Fayziyevlar olib bordilar.

O'qituvchilar O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlardan xabardor bo'lish, ularni turmushimiz va ijtimoiy faoliyatimizda, jamiyatimizda inson huquqlari hamda manfaatlarini to'la ta'minlanishida g'oyat asqotishi, yuqori darajadagi huquqiy savodxonlik azaliv an'analarimizga, hayot tarzimizga, umuminsoniy qadriyatlarga, real voqelikka muvofiq yashashimizda barchamiz uchun tayanch ekanligini ta'kidladilar.

Xulosa o'rniда aytish joizki, ushbu ma'rifiy-ma'naviy tadbirlar har bir talabaga o'zi uchun, kelajagi uchun "Yangi Konstitutsiya"ning o'rni va roli katta ekanligini yana bir bor eslatib o'tdi. Avvalo, har qanday madaniyat yuksak ong va tafakkurga asoslangani singari, huquqiy madaniyat, qonunlar va Konstitutsiyamiz ham biz talabalarda, huquqiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni talab etmoqda. Huquqiy tafakkur va dunyoqarash esa Konstitutsiya, qonunlarni, umuman huquq ilmini o'rganish orqali shakllanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilim va madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Demak, Konstitutsiyamiz inson hayotining mohiyatini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham Konstitutsiya – insoning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga imkon beradigan, ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir.

qo'shgan kishilar haqida dublyaj san'ati kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Kechada so'zga chiqqan aktyorlarimiz mikrofon oldida so'zning kuch-qudrati, ohang, tembri, tinqi va ravnligi masalasidan keyingina, aktyor ijrosini ta'kidladilar.

Xo'sh, O'zDSMIda mikrofon ustida ishslash qay darajada? Oriyat dono radiosida mehmon bo'lgan "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasi mudiri, professor v.v.b Iqboljon Meliqo'ziyev yil so'ngiga qadar yangi dublyaj studiyasini talabalarimiz uchun ishga tushishini aytib meni quvontirdi. Ko'plab yigit, qizlarimizni ovoz diapozonlari keng, nutqlari ravon. Demak, ular mikrofon oldida bermalol ishlay olishlari mumkin. Buning uchun bizga alohida shart-sharoitli dublyaj yoki ovozni tarbiya qiluvchi laboratoriya kerak. Shu yerni o'zida, professor o'qituvchilarimiz yangi ovozlarni sayqallab radioga, televide niye, dublyaj sohasiga qiziquvchilarini kashf qila olsinlar. Hozirda ham bor imkoniyatlardan foydalanib, institut radio studiyasida rejissyor Orifjon Rahimjonov bilan birga mikrofon ustida ishslash amaliyotini olib bormoqdamiz. O'yaymanki tez fursatda yaxshi yangiliklardan hammamiz xabardor bo'lamiz. Chunki Iqboljon Meliqo'ziyev va'dasida tura oladigan rahbar...

MAGISTRATURA – ILM DEMAKDIR

Bugungi tezkor axborot asrida Uchinchi renessans poydevorini yaratish hamda bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm fan, tenologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisod sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo'lishini talab etmoqda. Ammo o'zligimizni, tilmizni, milliy xususiyatlarimizni, ma'naviyatimizni, ya'ni milliy identikligimizni saqlab qolishimiz shart ekanligini davrning o'zi dolzarb qilib qo'yemoqda. Bu esa ta'lif-tarbiya tizimiga, yosh avlod qanday qadriyatlarga intilishiga dunyoqarashida milliylik va umuminsoniylik uyg'un bo'lishiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini bildirmoqda.



Aynan yuqorida muhim strategik vazifalardan kelib chiqib, institutimizda faoliyat olib borayotgan Magistratura bo'limi, "Madaniyatshunoslik" kafedrasi qoshida taxsil olayotgan madaniyatshunoslik mutaxassisligi talabalariga shahrimizda faoliyat yuritayotgan madaniy institatlarda ko'chma darslar, davra suhbatlari hamda ilmiy, ijodiy uchrashuvlar tashkil qilingan. Bu darslardan ko'zlangan maqsad, bo'lim magistrlarini dunyo madaniyatshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalar hamda madaniyat taraqqiyotining umumiyy qonuniyatları, Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyatning tutgan o'rni va vazifalari xususida nazariy bilimlar berish va olgan bilimlarini amaliyotga tatabiq etishda ko'maklashishdir.

Tom ma'noda aytadigan bo'lsak "magistr" so'zining asl ma'nosi ham ilm, bilim va uni jamiyatda qo'llash bilan bog'liq bo'lib, lotincha "ustoz", "boshliq" demakdir. Magistr ayrim mamlakatlarda bakalavr va fan doktori o'rtaisdagi ilmiy daraja bo'lib, tayanch olyi ta'lif kursidan so'ng qo'shimcha dastur

bo'lgan, maxsus imtihonlarni topshirgan va muayyan ilmiy ishni himoya qilgan shaxslarga beriladi. Magistr (lavozim), Qadimgi Rimda bir necha lavozim, masalan: diktator yordamchisi, imperianing so'nggi davrida bosh qo'mondon, keyinchalik Yevropada ulug' magistr, katolik ruhoniy ritsarlar jamoasining boshlig'i...

O'zbekistonda magistr darajasi, "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq universitetlar, akademiyalar, institut olyi maktabining boshqa ta'lif muassasalarida olyi ta'lifning ikkinchi bosqichi ya'ni magistraturani tugatganlarga beriladi. Yuqorida barcha fikrlardan ko'rinish turibdiki, magistatura bu ilm bilan shug'ullanuvchi, ziyoli, o'z bilimini boshqalarga o'rgatuvchilardir.

Aynan muqaddas islam dinimizda ham halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni ilm va amaliy faoliytki hamma narsadan ustun qo'yan. "Ilm izlab, Chinga bo'lsada bor", "Beshikdantoqabrgacha ilmizla", "Sendan harakat, mendan barakat", "Bir soatlik

adolat, barcha insu-jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustundir" kabi ko'plab shunga o'xshash xalqimiz merosida kelayotgan hadislar, naqlar ajoddarimizning ijtimoiy mo'jaliga aylangan. Yangi o'quv yilidan ilm yo'liga otlangan magistrlarimizni har birlarini qiziqtirgan mavzulari doirasida bakalavr ta'lif yo'naliishi talabalariga muammoli ma'ruza o'qishlarini tashkillashtirdik. O'quv rejasida belgilangan "Madaniyat pedagogikasi" fanidan olgan bilim va ko'nikmalari birmuncha ijobjiy natija bermoqda. Kafedramiz professorlari V.Alimasov, A.Mavru洛 ustozlarimiz fanlarning nazariy jihatlariga e'tibor berib, dotsentlarimiz Q.Nishonboyeva, SH. Abdurasulovlar esa nazariyani amaliyot bilan bog'igan holda, ularni ilmiy tadqiqot ishlari yo'naltiriyaptilar.

Madaniyat markazlari, muzeylar, kutubxonalar bilan bog'liq darslarni tashkil qilib bormoqdalar. Bugungi magistrlarimiz bo'lg'usi pedagoglar hamdir. Shularni inobatga olib ularni pedagogik mahorati, pedagogik qobiliyati, tarbiyaviy bilim va malakalarini shakkantirib borish maqsadida bakalavr ta'lif yo'naliishi talabalariga dars o'tish jarayonlari tashkil qilingan. Magistrlar bu borada o'zlarining bilim va pedagogik mahoratini sinab ko'rsalar, ikkinchi tomonidan o'zlarini tadqiqot olib borayotgan mavzu yuzasidan fikrlarini mukammallashtirib boradilar.

Jumladan: birinchi bosqich, "Madaniyatshunoslik" bo'limi magistri Shaxboz Ubaydullayev tomonidan MSMTEB 4-bosqich talabalariga "Madaniyat va din: uning tarixiy ildizlari va zamonaviy tendensiyalari" deb nomlangan mavzu o'tilib, talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Dars jarayonida magistr birinchi kurs bo'lishiga qaramay, barcha pedagogik mahoratini ko'rsata oldi. Talabalarga madaniyat va din uyg'unligi, uning tarixiy ildizlari, Islom dini va san'at masalalari hamda diniy madaniyat masalalariga madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yondoshib, kasbiy pedagogik imij va etiket bilan tushuntirib berdi.

Magistrant Xakimova Ma'sudaxon tomonidan "Milliy madaniyat markazlari va madaniyat masalalari" mavzusida guruhlarga ma'ruza qilinib, talabalar tomonidan ijobjiy baholanib, ushbu mavzu atroficha, sodda va ravon tilda tushuntirib berildi. Mavzuga yondoshishda magistrant uzoq o'tmish tarixi bilan bog'lanib, bugungi kunda O'zbekiston hududidagi milliy madaniy markazlar va xoriiy mamlakatlar bilan baynalmil alopalar olib borayotgan markazlarning faoliyati xususida ma'lumotlar keltirib o'tdi.

Magistrant Aliyeva Gulshoda o'zining



**Qunduz NISHONBOYEVA,
"Madaniyatshunoslik"
kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi**

tadqiqot mavzusi doirasidan kelib chiqib, "Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda madaniyatning o'rni" mavzusini talabalarga yoritib berdi. Bunda har bir Renessans va uning ahamiyati, bir-biridan farqi va bugungi Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda madaniyatning tutgan o'rni alohida e'tibor berib, Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yoshlarning faoliigi va yutuqlari xaqida ma'lumotlar berdi.

Darslarni kuzatuvchi sifatida magistratura bo'limi boshlig'i A.Mahmudov, "Madaniyatshunoslik" kafedrasi mudiri A.Mamatqulov, fan o'qituvchilari N.Allanazarova, Sh.Abdunazarov va boshqalar ishtiroy etib, olib borilgan darslarni tahlil qilib, magistrarning ilmiy pedagogik jihatlariga baho berdilar.

Xulosa o'rnda shuni alohida ta'kidlash mumkinki, magistrlarimizga biz ustozlar kelajakda ilm egalari, bilim beruvchi fidoyilar deb qarashimiz va ularning nazariy olgan bilimlarini yoshlarga yetkazishda yordam berishimiz kerak. Chunki, zamonaviy o'qituvchi bu kelajak bunyodkor, yangi pedagogik tenologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir. Madaniyat, har bir fan o'qituvchisining yuksak fazilatlaridan darak beradi. Mahorat esa, uning kasb egasi darajasiga ko'taradi. Buyuk faylasuflardan biri Konfutsiy aytganidek: "O'zini kamol toptira olmagan inson, o'zgalar kamolotini ta'minlay olmaydi".

ONA TILI – millatning ruhidir

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, aynan til borasida qaytadan oyoqqa turish uchun eng muhim hodisalardan biri edi. Vaholanki, bu hodisa tilni hayotga qaytarish, uni tiklash uchun katta ko'mak va eslatma o'laroq tarixga muhirlandi. O'sha kundan buyon ushbu bayram mamlakatimizda tantanali ravishda nishonlanib kelinmoqda. Har yili turli tadbirlar, loyihibar amalga oshiriladi.

**Abdusamad RIZQITILLAYEV,
"San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati
dramaturgiyasi" yo'naliishi 3-bosqich talabasi**

Ona tiliga muhabbat uning so'zlaridan ma'nosini anglash, ularni to'g'ri qo'llash va uni chuqur o'rganishga harakat bilan ham namoyon bo'ldi. Yozuvchi shunday yozadi: "Jamiyatizing har bir a'zosi, har qanday mutaxasis, eng avvalo, o'zbek tilini mukammal bilmog'i kerak. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekiston fuqorosi sanalgan har birimiz fikrimizni ona tilida aniq va ravon ifoda etish uchun nutqiy madaniyat, notiqlik san'atini egallash yo'lidan bormog'imiz lozim".

Yuqorida ona tiliga muhabbat uning so'zlaridan ma'nosini anglash, ularni to'g'ri qo'llash va uni chuqur o'rganishga harakat bilan ham namoyon bo'ldi, – degan fikr ilgari surildi. Xo'sh, buning tagida nima yotadi? Bunga qanday erishish mumkin? O'z-o'zidan ma'lumki, ilm olish, kitob bilan



do'stlashishdir. Zotan, kitob nutqni va fikrlashni ijobjiy tomonga o'zgartira oladi. Buning uchun insonga xohish va ishtiyoq bo'lsa yetarli. Zero, xohish bo'lsa, insonga shiojat va ishonch begona bo'lmaydi. Binobarin, insonda xohish bor ekan, vaqt ham imkoniyat ham topiladi. To'g'ri, bugungi kunda kitob oqish borasudagi gaplar, ko'pchilikni joniga ham tegib ketgan. Ammo uning foydalari haqidagi yosh avlodga ma'lumot ularish zarar qilmaydi.

Kitob o'qishning maksimal o'n besh foydasi:

1. Asabiylikka barham beradi. Asabiyashangiz musiqa eshitib, ko'chada sayr qilasizmi? Buning o'rni qitob o'qib ko'ring. Tadqiqotlarga qaraqanda, o'n daqiqalik mutolaa asabiylikni ikki barobar kamaytirarkan;

2. Uyqusizlik qiynamaydi, kitob o'qish tinchlanish va uyquga hozirlik ko'rishning eng yaxshi usuli;

3. Ko'nglingiz yumshaydi. Mutolaa davomida asar qahramonlari kechinmalari bilan yasharkansiz, uning dardiga sherik bo'lasiz. Oqibatda real hayotda ham insonlarni yaxshiroq tushuna boshlaysiz;

4. Miyani charxlaydi, Buni-ku endi yoshlikdan bilasiz. Eng zamonaviy kompyuter diagnostikasi uskunalari ham kitob o'qigach, bir necha kun mobaynida inson miyasidan asab tolalari soni fiziologik darajada ko'payishini tasdiqlaydi;

5. Kurashishga o'rgatadi. Psixologiyaga oid kitoblarni o'qish tushukunlikdan chiqishga, maqsadlar sari kurashishga yordam beradi;

6. Chiroyingizni ochadi. Yuqori aqliy salohiyat atrofdagilarning e'tiboridan qolmaydi. Har qanday mavzuda suhbatlasha olishingiz, sizni boshqalardan ko'ra maftunkor ko'rsatadi;

7. Maqsadlaringizni belgilashga ko'mak beradi. Qahramonlarning erishgan yutuqlari sizni ilhomlantirishi aniq;

8. Ijtimoiy faol bo'lasiz. Kitob o'qiganlar madaniy va marifiliy tadbirlarda faolroq ishtiroy etishini statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi;

9. Xatosiz yoza boshlaysiz. Kitob o'qiganlarning yozishmalari xatosizligi bilan ko'zni yaratishi sir emas;

10. Xorijiy tillarni o'rganishga yordam beradi;

11. Ijodiy salohiyatingiz o'sadi. Kitob o'qimay tuzukroq qo'shiq kuylagan, musiqa yozgan, rol ijo etgan, rejissyorlik qilgan kimni tanysiz? Xulosa chiqaravering;

12. Farzandlarining bilan munosabatingizni yaxshilaydi. Ota-onalar farzandlariga kitob o'qib berarkan, ularning o'rtaisdagi shunday mustahkam rishtalar paydo bo'ladiki, buni birgalikda televizor ko'rish yoki boshqa ko'ngil ochar tadbirlarni tomosha qilish bilan solishtirib bo'lmaydi, - deydi ruhshunoslar;

13. Boy bo'lasiz. Kitob o'qiganlar ichida boylarning ulushi o'qimaydiganlarga nisbatan bir necha karra ko'p;

14. Jinoyatning oldini oladi. Kitob o'qiganlar ichida jinoyatchilar kam. Qamoqxonalarda mutolaani boshlagan jinoyatchilar esa, qayta qing'ir yo'iga qadam tashlamasliklari ham o'rganigan;

15. Nutqingiz rivojanadi. Birovlarning hayoti haqida o'qir ekansiz, o'z fikringizni ham tiniq bayon etishga o'rganasiz. So'z boyligingiz oshadi.



Fazlidin MAMATOV,
“Madaniyat va san’at sohasi
menejmenti” ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Garchi, shoning uchun yaralgan asar,
Menden avvallarda, o’tkir qalamda.
Shunda ham senga bir qilay dil izhor,
Sendan go’zal vatan yo‘qdir olamda.

Seni ko‘p kuzatdim xalqim qalbida,
Sendirsan chiroqli, o‘zgacha makon.
Yashayman quvonib kuyim avjida,
Tilim ketar hamon, sharafing tomon.

Abadiy bahori jilmas, bog‘-bo‘ston,
Dillarda mangu yurt, ey O‘zbekiston!
Bag‘ringda ulg‘aydi qancha buyuklar,
Dunyoga nomingni baralla aytdi.

Hozir ham amalda, Temur tuzuklar,
Dilda Alisherning necha ming bayti.
Bobur yashagandi, senga talpinib,
Vaslingga to‘ymasdan o‘tdi olamdan.

Yana qancha beklar mehr ilinib,
Yana qanchalari yig‘lar alamdan.
O‘g‘lonlar sen deya kechdi, qancha qon.
Yuragi qayg‘u yurt, ey O‘zbekiston!

Ilm-ma’rifatdan taratdi sho‘la,
Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sinolar.
Toshlardan mustahkam, bardoshli qal‘a,
Bo‘ldi boshing uzra buyuk siymolar.

So‘z sehrin dillarga yetkazib asta,
Pichir-pichir bilan ozodlik sari.
Yaqin tarix o‘tdi shoshilib tezda,
Usmon Nosirlarning ijod gavhari.

“Shahidlar”, “Xotira” bo‘lmish xiyobon,
Dunyoga yog‘du yurt, ey O‘zbekiston!
Bahoring bahordek, kuzda hosil mo‘l,
Suvdayin serobsan tinch-totuv o‘lkam.

Uzatsak yetadi, endi oyga qo‘l,
Yulduzing porlaydi, bayroqda ko‘rkam.
O‘tmishning merosi, kelajak qarzi,
Biz uchun hur vatan, tanho, yagona.

Seni avaylamoq barchaning farzi,
Tarix sahnasida boqiy afsona.
O‘zbeklar o‘ziga bo‘ldi hokim, xon,
Kimlarga orzu yurt, ey O‘zbekiston!

Onajon

Siz meni kechiring, onajon bu kun!
Madhingizga na she‘r yozdim, na qo‘shiq.
Agar kasal bo‘lsam, nogoh yiqlilib,
Bo‘g‘zingizdan o‘tmadi, taom bir qoshiq.
Ha, beunlardek sizni qiy nadim,
O‘tira olmaysiz, chin baxtni tuyib.
Osuda baxt emas, mehnatni deysiz,
Yuragingiz go‘yo baxtlarga to‘lib.
Yana nima deysiz? shu farzandlarim,
Yursin g‘am ko‘rmayin, bizdan baxtliroq.
O‘zingiz qiynalib turgan chog‘larda,
Farzandlarga deysiz mehr haqliroq.
Siz meni kechiring, onajon bu kun!
Madhingizga na sher yozdim, na bitta qo‘shiq.



Jahongir SOBIRJONOV,
“Madaniyat va san’at
muassasalarini tashkil etish hamda
boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Ijodkor

Ijodkor kim o‘zi? bilmadim men ham,
Ba‘zan qo‘lda qog‘oz, ba‘zida qalam.
Yuzida tabassum, qalbda g‘am-alam,
Ijodkor ko‘nglini bilmaysiz-da siz...

Na kasb-kori bor, na hunar, esiz,
Gohida tushunib, g‘amini yersiz.
“Qalamining tashlab, ketmon ol”, – dersiz,
Ijodkor ko‘nglini bilmaysiz-da siz...

Shoir har kechasi she‘rlar bitmaydi,
Musavvir shunchaki rasm chizmaydi.
Ilhom qachon kelar, qalam bilmaydi,
Ijodkor ko‘nglini bilmaysiz-da siz...

Ba‘zan tizza mushtlab, kulib toladi,
Gohida bildirmay yig‘lab oladi.
Yanachi, yolg‘izlik istab qoladi,
Ijodkor ko‘nglini bilmaysiz-da siz...

Javobsiz savolga javobdir she‘ri,
Dersiz: “Tashvishi yo‘q, og‘rir qayeri?”.
Axir qalb dardidan kelmaydi beri,
Ijodkor ko‘nglini bilmaysiz-da siz...



Ijodkorning so‘zi yolg‘ondan yiroq,

Kichik ko‘ngilchasi og‘risa biroq,

Sukut, xo‘rsinish va qo‘ldagi titroq,

Ijodkor ko‘nglini bilmaysiz-da siz...

Ijodkordek yashab ko‘rsayingdiz siz!

Oqila ORTIQBOYEVA,

“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda
boshqarish ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Bir zum puling bo‘lmasa!

Yaqinlar ham begona,
Og‘irlashar zamona,
O‘z-o‘zingga hayrona,
Bir zum puling bo‘lmasa!

So‘zing o‘tmay qoladi,
Ko‘zing om‘tmay qoladi,
Oshnalar ham yo‘qoladi,
Bir zum puling bo‘lmasa!

Bir iloj topolmaysan,
Oilangni boqolmaysan,
Ko‘chaga chiqolmaysan,
Bir zum puling bo‘lmasa!

Ko‘p narsa tushunib qolarsan,
Do‘st-dushman ajratib olarsan,
Boshingga tushganda bilarsan,
Bir zum puling bo‘lmasa!



Mirjalol MIRSAVLATOV,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Yarolmay qolasan, otang koriga,
Qarolmay qolasan, onang holiga,
Yoqmay ham qolasan, sevgan yoringga,
Bir zum puling bo‘lmasa!

Qismat qurbanoni

Erta tong gul bog‘ida bir atirgul ochildi,
Ochildi-yu, ifori har tomonga sochildi.
Atirgul alvon rangda tovlani broq turardi,
Ko‘zi tushgan barchaning ko‘ngli nurga to‘landi.

Shunday kunning birida, Majnun o‘tdi shul bog‘dan,
Atirgulni ko‘rdi-yu, uzib oldi u shoxdan.
Majnun dildan sevinib, qayergadir chopardi,
O‘ylashicha atirgul, sevganiga yoqardi!

Yetib bordi Majnun, kelishilgan joyiga,
Bir go‘zal qiz turardi, to‘lib-toshib chiroya.
Yetib bordi-yu Majnun, qiz moyiga tiz cho‘kdi,
Qalbidagi tuyg‘uni, borini aytib to‘kdi.

“Devona bo‘ldim sizga, yor bo‘ling menga Layli”,
Qiz uyalib, nozlanib, pichirlab dedi: mayli.
Qaynoq qalblar taftidan, atirgul isib ketdi,
Uning oh-u nolasi, zamin-u ko‘kga yetdi.

Azroil vahshiylarcha atirgul jonin oldi,
Bu orada atirgulni, oshiqlar suvga soldi.
Afsus...

Atirgul bu hayotga qaytmas endi hech qachon,
Hayoti tugagandi, shoxidan uzilgan on.



**Luhmonjon
TURSUUNBOEV,**
Kўтирчок театри
актёрги
йўналиши,
сиртқи 2-bosqich
талабаси

Mardlik qildi atirgul Layli va Majnun uchun,
Jondan kechish shartmidi? kimningdir baxti uchun!
Layli Majnun sevgisi shu tariqa boshlandi,
Atirgulning qismatiga mening ko‘zim yoshlandi!

Ushbu asar detektiv asar bo'lib, 1939-yilda yozilgan. Yozuvchi 1943-yilda ushbu asar asosida pyesa ham yozgan. Asarni Hasanboy Teshaboyev o'zbek tiliga tarjima qilgan. Asarning mazmun-mohiyati jinoyatchilarni topish hamda ularning jinoyatlarni fosh etish. Asar g'oyasi esa har qanday jinoyat jazosini albatta ertami-kechmi topishi haqida. Men ushbu asarni 15-16 yoshdan oshganlar o'qishlarini maslahat beraman. Asar juda ham sarguzashtlarga boy bo'lib, xuddi o'yin tarzida yozilgan.

JUMBOQ



O'yin tili esa, asardagi yosh bolalarning o'nta negr bolasi haqidagi ushbu she'ri orqali olib boriladi:

*O'nta negr bolasi, bordi tushlik qilgani,
Biri tiqilib o'ldi, to'qqiz qoldilar bari.
To'qqiz negr bolasi, miriqib qildi tushlik,
Biri uyg'ona olmay, sakkiz qoldilar sho'rlik.
Sakkiz negr bolasi, yurdilar devon tomon,
Biri ortga qaytmadi, qoldilarku yettovlon.
Yetti negr bolasi, o'tin yordilar birga,
Biri o'zini chopdi, olti qoldi nahorga.
Olti negr bolasi, asalari boqishdi,
Beshta qolishdi so'ngra, birini ari chaqdi.
Beshta negr bolasi, qozilikni boplashdi,
Birini sud qilishgach, nochor to'rtta qolishdi.
To'rtta negr bolasi, cho'milishdi dengizda,
Biri qarmoqqa tushdi, uchovlon qoldi birga.
Uchta negr bolasi, bordi hayvonot bog'i,
Birini ayiq tutdi, ikkisi ekan sog'i.
Ikki negr bolasi, yotdi jaziramada,
Biri kuyib bo'ldi kul, qoldi biri aftoda.
So'nggi negr bolasi, horg'in atrof qaradi,
So'ngra o'zini osdi, keyin hech kim qolmadi.*

Asarda og'ir jinoyatga qo'l urgan, ammo har xil yo'llar bilan jazodan qochib qolgan o'nta ashaddiy jinoyatchilar ONIM ismli shaxs tomonidan ZANJILAR oroliga taklif

qilinadi. Jinoyatchilar dastavval, ushbu taklifni eski, ammo ular yaxshi eslay olmagan do'stlari tomonidan deb o'ylashadi va orolga osongina yo'l olishadi. Onim ismli shaxs bu taklifa ularning nozik tomonlaridan foydalanadi. Jinoyatchilar taklifga binoan jon deb orolga yo'l olishadi.

Mehmonlarimiz vahimali ko'ringan oroldagi dabdabaluyga joylashishar ekan, ularga ko'rsatilgan shohona mulozamatlardan behad hursand bo'lishadi. Afsuski, bu xushnudlik uzoqqa cho'zilmadi, birinchi tushlikdayoq ular bu orolga nima uchun taklif qilinganliklari oshkor bo'ldi. Ammo mehmonlarning jinoyatlari ochib tashlanganda ham ular baribir o'zlarini oqlashga tushishdi va yolg'on gapirishda davom etishdi. Endi men sizlaraga mehmonlarimiz hamda ularning jinoyatlari bilan tanishtiray:

- *Jorj Armstrong bemori Luiza Meri Klin o'limi uchun javobgar;*
- *Emili Korolina Brent xizmatkori Beatrisa Taylor o'limida aybdor;*
- *Uilyam Genre Blor soxta guvohlik sabab Jeyms Stiven Landor o'limiga sababchi;*
- *Vera Elizabeth Kleytorn bekasining o'g'li Siril Ogilvi Xamiltonni o'dirgan;*
- *Filip Lombard sharqiy afrika qabilasidagi 20 kishini o'limiga duchor qilgan.*
- *Jon Gordon Makartur xotininining do'sti Artur Richmandni qasddan muqarrar o'limiga jo'natgan.*
- *Antoni Jeyms Marston yosh bolalarni yuqori tezlikda mashina haydash oqibatida urib yuborgan Jon va Lyusi Kombsni o'dirgan.*


*Men sening ko'zlaringga termulsam... bo'ron ham, jala ham ta'sir qilmaydi.
Hatto qishning qahratonini, sening iliq harorating kesib yuboradi. Qachonki, sening ko'zlaringga termulsam, havoning sovuqligi bилимай, ayoz huddi bahor havosidek, qor parchalari iliq bahor shamolidek mayin uriladi yuzimga...*

Ko'zlaringga termulsam, o'sha beg'ubor ko'zlar orqali ertakka tushib qolaman go'yo, so'ng shunchaki dengiz ko'zlaringga takror-takror termulib cho'kkim keladi. Ha, aynan cho'kib ketgim keladi ko'zlaringga... Men qachonki seni ko'zlaringga termulsam... oshiqligimni his qilaman. Meni rom etgan go'zal xilqat, Alloh yaratgan xushsurat, hurliqo... Alloh qalbimga joylagan oromsan.

Oh, ko'zlaringga termulsam...

Bu ko'zlaringga, men o'zimni topgan maskan bo'lsin...

*Unga qaraganimda ketsin tashvishlar, qalbim eshigin cherta olmay,
O'zimni tetikroq va dadilroq tutay, uning oldida...
Oh, sening ko'zlarin...*



Xafiza ALIBEKOVA,

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'l'im yo'nalishi 2-bosqich talabasi

- Tomas Rojers va Etel Rojers bekasi Jenifer Breydini o'limga duchor qilgan.

- Lorens Jon Uorgreyv Edvard Siton o'limida aybdor.

Asar qahramonlari birin-ketin qo'shiqdagi so'zlar kabi noma'lum kimsa tomonidan o'ldirilib boriladi. O'z gunohlari uchun javob berishni MARSTON boshlab beradi. Asar qahramonlarining keyingi qurbanlari kim bo'lishiga qiziqyapsizmi? Unda, asarni to'liq o'qib chiqishni maslahat beraman. Ularni gunohlari uchun sud qilayotgan noma'lum jinoyatchi aslida kim? Balki bu shaxs ularning ichidadir? Ushbu savollarga javob asarni mutolaa qilish davomida oydinlashadi.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, Janobi Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning shunday hadislari bor: "Odobni odobsizdan o'rgan". Zero, asar bizga asardagi qahramonlarning taqdirlaridan to'g'ri xulosa chiqarishimizni o'rgatadi. Yani, LOMBARD singari hayotda nihoyatda ehtiyyotkor bo'lishni, VERADAN esa, bu hayotda hech kimga keragidan ortiq ishonmaslikni, MARSTONDAN o'ziga haddan ortiq bino qo'ymaslikni, BLORdan katta-kichikmi barcha yolg'onlar oxir-oqibat baribir bir kun, albatta oshkor bo'lishini, erxotin ROJERSLARdan esa boylikka xirs qo'ymaslikni, UORGREYVDAN esa har qanday holatda ham inson o'z vijdoniga va adolatiga sodiq qolishi kerakligini angladim.

Shuningdek, asarda bir qancha maqol hamda o'xshatishlardan foydalanilgan, bu asar syujetini ochib berish va tasvirlashda juda qo'l kelgan. Masalan: "Tibbiyotda ko'pincha ishonch davolaydi", "Poklan va tavba qil", "Dengiz gohida sokin, gohida shafqatsiz bo'ladi", "Qavm o'zları qazigan choh sari quladı"... Oqqush qo'shig'i, sezarning rafiqasi, shimol afsonalaridagi yosh ma'bud, ishongan tog'da kiyik yotmaydi, karnaychidan bir puf, Lo Ness mahluqi, "Parvardigori olam jinoyatchilarni jazolashni biz bandalarning o'ziga qo'yib bergen", hammasining yakuni halovat, qo'rqqanga qo'sh ko'rinar...

O'n nafar mehmon, o'nta negr bolalarining chinnidan qilingan haykalchalari, ularning qo'shig'i va ular bilan o'n ikki kun davom etadigan daxshatlari ZANJILAR orolidagi taqdir o'yini sizga qiziqmi? Unda asar mutolaasiga tezroq kirishing.



GLOBALLASHUV DAVRIDA

milliy qadriyatlarni asrab-avaylashning muhim jihatlari

Insoniyat boy qadriyatlarga suyangan holda kamol topadi. Buyuk O'zbekistonimizning istiqboli, ko'p jihatdan yoshlarning salohiyatiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashga bog'liq. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Umuminsoniy qadriyatlarni davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliishi sifatida belgilandi. Uning asosiy maqsadi o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslarni, xususan, yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida joriy qilingan 5 ta muhim tashabbusda, "Ta'lism to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ham milliy va umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, o'z vataniga va xalqiga sodiqlik ruhiyatini shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan.

Xo'sh, qadriyat nima? Qadriyat – voqeijklagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalardir. Shubhasiz Milliy qadriyatlarni mamlakatning ravnaci yoki inqirozi bilan bog'liq tushunchadir. Boshqacha qilib aytganda qadriyatlarni millatning o'tmish va kelajagi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham, millat

rivojlansagina qadriyatlarni rivojlanadi. Inqirtozga ucharasa millat ham qadriyatlarni yo'q bo'ladi, qadrtsizlanadi. Umuman olib qaraganda, milliy qadriyatlarni negizida urf-odatlar, shu yurtda yashovchi xalqning milliy bayram-sayllari, rasm-rusmlar yotadi.

Bizning qadriyatlarni mazmuni esa insonparvarlik, hamjihatlik, millatlararo totuvlik, og'a-inichilik kabi ming yillardan beri shakllanib kelayotgan va bundan keyin ham saqlanib qolishi kerak bo'lgan g'oyalar yotadi. Dunyo shiddat bilan rivojlanib, butun dunyoda o'zgarishlar sodir borayotir. Xuddi sunday ommaviy madaniyat ham, bevosita bizning, millatimizga o'z ta'sirini o'tkazdi, – desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'kidlashjoizki, globallashuv jarayonlarida axborotlashuvning kengayishi ma'naviy tahdidlarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirish, inson qalbiga yo'il topishni har tomonlama puhta o'ylangan tizimli ravishda olib borish bu sohadagi faoliyatni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. O'ylashimcha, globallashuv

sharoitida yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish, ular ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki, qayerda yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Abu Nasr Farobi iborasi bilan aytganda: "*Aholisi xushxulqqa ega bo'limgan mamlakatda hokimiyatga ehtiyoj seziladi*". Demak, ja'miyatning nechog'lik demokratlashuvi fuqarolar erki, huquq, erkinliklari, burchlarini bajarishi eng avvalo, adolatli jamiyat aholisining fe'l-atvoriga, qadriyatlarga, ma'naviy-axloqiy va ularning huquqiy kamolotiga bog'liqdir. Milliy odob-axloq va an'analar ham shaxs huquqiy ongini oshishida muhim o'rinni tutadi. Yoshlarni bilan bog'liq muammolarni hal etishda ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi milliy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlarni bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat berish kerak.

Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizmini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoxda. Chunki hozirgi globallashuv sharoitida, bir tomonidan, milliy qadriyatlarga, ikkinchi tomonidan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-huquqiy yangilanish jarayonlarini amalga oshirish, alohida dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bois, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: avvalo, "*Milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy qadriyatlarni, xalqimizning*



**Mohinur YORQULOVA,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish" ta'lism yo'naliishi
2-bosqich talabasi**

dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, vatan ravnaci, xalq manfaati, uning farovonligi yo'lida xizmat qilmogi darkor."

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy qadriyatlarni bizning boylik manbaimiz hisoblanadi. Dunyo qanday va qaysi tomoniga qarab rivojlanmasin, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni rasm-rusmlarimiz, bizning qaysi millatdan ekanligimizni va asl naslimiz kim ekanligini ko'rsatib beradi. Eng katta boylik ham shu milliy qadriyatlarni ekanini tan olgan holda millatni "O'zbek" qilgan milliy qadriyatlarni asrab-avaylashimiz kerak.

Qalbimizga yaqin insonlar

Xalqimiz bejizga "Ustoz qadri buyuk inson", – deb aytishmagan. Bu jumla qancha ma'noni anglatadi... Avvalambor, bizni ota-onamiz dunyoga keltiradi. Ustoz esa, qo'limizga qalam tutqazib, o'qishni hamda yozishni o'rgatadi, savodimizni oshiradi.

Hamma o'z bolasini suyadi. O'zganining bolasini suyish unga ta'lism-tarbiya berish esa har kimning ham qo'lidan kelmaydi. Buning uchun insonda katta yurak bo'lishi kerak. Ustozlarda esa mana shundek kuchli yurak bor, nazarimda. Ularning bardoshiga tan bermaslikning iloji yo'q. Albatta ustozlarda otaning qattiqqo'lligi onaning mehri bolishi kerak. Agar mana shu fazilatni ustoz o'zida mujassam eta olsa, o'quvchi ham, ustozga moslashib, qabul qila olish darajasi yuqori bo'ladi. Lekin o'quvchiga haddan tashqari qattiqqo'llik qilib ham bo'lmaydi.

Ustozlar har bir o'quvchisining fikri va tasavvurini inobatga olishi kerak. Ayrim o'quvchining bilim savyiasi past bo'lgan taqdirda, uning boshqa fanlardan qiziqishlari bo'ladi. Har bir o'quvchi bir olam ekanligini, ustozlar inobatga olishi kerak. Ustozlar haqidagi qancha gapirsak ham oz... Ustoz ham ota-ona, ham aka-uka, opa-singil hatto do'st bo'la oladi.

O'ylab qarasam, haqiqatan ham

sunday. Chunki o'zligimizni tanitib, yetuk inson qilib shakllantiradigan inson – Ustozdir. Olim-u fozillar, ustozlarni biz o'quvchi yoshlar ulug'lashimiz ularni duolarini olishimiz lozim. Qancha ko'p duolarini olsak, shuncha yuqori pog'onalarga ko'tarilaveramiz. Aksincha ustozlarini norozi qilgan inson hech qachon o'zining orzulariga, maqsadiga erisholmasdan bir umr mevasiz daraxtdek ko'karmasdan yashayveradi. Ustozlarni rozi qilgan inson yuksalaveradi. Yuqori cho'qqilarga chiqaveradi. Men ustozlar haqida qancha gapirsam ham, ozdek tuyuladi.

Ustozlarda barcha ijobji fazilatlar mavjud. Men barcha fazilatlarni ustozlarni ko'rganman. Ularning sa'y-harakatlari, bergan bilimlari, qilgan duolarining natijasida talaba bo'ldim. Ustozlarim ushbu naqlini doim aytishardi: "Hech qachon ortingga qarama, har doim oldinga intil, sabrli bo'!". Men ularning aytgan naqlarini hech qachon unutmadi, unutmayman. Turli og'ir kunlarimda maqsadimga erishguncha



**Zarina NURULLAYEVA,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish" ta'lism yo'naliishi
1-bosqich talabasi**

ustozlarim men bilan birga bo'lishdi. Menga yordam berishdi, dalda berib turishdi. Har doim meni yonimda bo'lishdi

va men ular tufayli o'z maqsadimga erisha olayapman.

Shuni yana anglab yetdimki, ustoz har qaysi inson ko'nglida chuqrur hurmat-e'htirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari shu bilan birga hech qanday boylik bilan o'lchap ado qilib bo'lmaydigan qarz dorlik hissini uyg'ota olarkan. Ustozlar o'giti, keksalarimiz pand nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmaymiz. Bu bilan ustoz murabbiyalarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo'lamiz.

Bilim va marifat dunyosi sari yo'l ochib, qalbimizga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo'lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylarga nisbatan ko'nglimda minnatdorlik tuyg'usi bilan yashar ekanman, berilayotgan ilm va hunarni samarali o'rganishga harakat qilaman. Hozirda menin talaba bo'lib yurishimga, yuqorida aytib o'tganimdek, ustozlarimning qo'shgan hissasi juda kattadir. Ustozlarni xafa qilmaslik, ko'ngillariga ozor bermaslik ham oliy fazilat. Xulosa sifatida o'zimning yoshligimda yozgan quyidagi satrlarimni keltirib o'tmoqchiman:

*Ilk bora qo'limga qalammash,
Tutqazdingiz – ma'naviy siyoh.
O'qishni, yozishni o'rgatib, sayqallab zako,
Mehrini nur kabi sochib bizlarga,
Ilmu ma'rifatni sayqallar – kulo!*

JANNATIM ONAMGA MAKHTUB

Onajon, qachon baholarim, diplomim haqida o'ylamaydigan, poyabzalimning bog'ini o'zim bog'laydigan, betob bo'sam dorilarimni o'zim ichadigan, bozorga borsam yolg'iz boradigan, egnimdag'i liboslarni o'zim tanlaydigan, mustaqil qaror qabul qiladigan bo'ldim? O'sha bolalik vaqtimda sizsiz uxlolmagan qizingiz bugun katta, begona shaharlarda o'qib yuribdi.

Nozima ULUG'JAVA,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali 4-bosqich talabasi

Aslida, hammasi ko'ringani kabi emas. Men hali ham o'sha-o'sha qorong'ulikdan qo'rqaqidan, tishi og'risa yig'lab, issiqqina qo'llaringizni quloqlariga qo'yib, sizdan ertaklar kutadigan qizingizman. Onajon katta qiz bo'lismay ekan. O'sha hech nimani o'ylamay ko'chalarda o'ynab yuradigan beg'ubor, shodon bolaligimni sog'indim.

Opam ikkimizni deb, sochlaringizga oq oraladi. Biz uchun qancha olovli o'tlardan o'tdingiz, muzdek suvlardan kechdingiz, hech kimdan kam qilmay o'stirdingiz. Bergan tarbiyangiz uchun g'oyibdan bo'sada har kuni ustozlarimdan rahmat

eshitasiz. Bu hali boshlanishi, shunday kunlar keladiki, dadam bilan birga mendek iqtidorli, izlanuvchan, tinib-tinchimas qizingiz borligidan faxrlanib yurasiz.

Ilm olishim uchun imkon yaratdingiz, taqdир taqozosi bilan grand asosida emas, to'lov-shartnomaga asosida talaba bo'ldim, yetmaganiga necha ming kilometr uzoqlikda joylashgan, o'sha men istagan San'at va madaniyat institutida ta'lism olishim uchun hech ikkilamay, dadam ikkingizning muhabbat ramzingiz bo'lgan tilla-taqinchoqlaringizdan voz kechdingiz. Darhaqiqat, qiz farzandining

ta'lim olishi uchun sharoit yaratib berayotgan siz kabi ota-onalar, bugungi kunimizning haqiqiy qahramonlarisiz!

Bu dunyoda farzandlar uchun ota-onan tanlashning imkon yo'q. Ammo berilganida ham, aynan dadam ikkingizning farzandingiz, va opamning singlisi bo'lishni xohlar edim. Bilaman, men nodon qizingiz sizni ko'p ranjiti, dilingizni og'ritganman. Bu uchun ichetimdan afsus chekaman. Doim "Ona bo'lganiningda meni qadrimni bilasan, tushinasan", - derdingiz. Sizning qadrining ona bo'lmashimdan oq bilyapman. Aslida qiz bola uchun, eng yaqin sirdosh, g'amxo'r va maslakdosh uning onasi bo'larkan. Siz esa, mening eng katta yutuqlarim, sababchisisiz.



Allohim dadam ikkingizni Jannat bilan siylasim. Dunyo turguncha turing. Ikki dunyo saodatini ko'ring. Borim ham, borlig'im ham o'zingizsizlar.

Hurmat bilan sizlarni sog'ingan qizingiz Nozima. Sizlarni yaxshi ko'raman!

Izlangan talaba imkon topadi

Qiz bolani shuncha uzoq joyga, kontrakt to'lab o'qitish zarurmidi? Yetmaganiga arzimagan san'at sohasiga...

Mavzu yuzasidan qahramon qidirar ekanman, bir yilning o'zida "Islom Karimov" stipendiyanti, uch kitobning muallifi, o'ttizga yaqin ijodiy ishlari Respublika hamda xalqaro jurnal, gazeta va antalogiyalarda, yigirmadan ziyod ilmiy, publisistik maqola shuningdek tezizlari OAK tasarrufidagi ilmiy jurnallarda yoritilgan, xalqaro ijodiy tanlovlarda ssenariy va video monologlari bilan faxrli o'rnlarni qo'liga kiritgan bo'lsa, festival va forumlarda o'zining loyiha va takliflari, tashabbuskorligi bilan faol qatnashib ellikka yaqin diplom va sertifikatlarni qo'liga kiritgan, faxrli yutuqlari bilan tengdoshlari va ustozlari e'tirofiga sazovor bo'lgan ijodkor qizimiz, diqqatimni tortdi.

2001-yil 13-oktabrda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida tug'ilib, 37-umumta'lum maktabida yetuk, tajribali ustozlardan saboq olgan, qachonlardir ota-onasidan minglab kilometr uzoqlikda o'qishni hayoliga ham keltirmagan qahramonimiz Nozima Ulug'ovani hayot charxpalagi deymizmi yoki jo'shqin ijodkorning san'atga, adabiyotga bo'lgan kuchli qiziqishlarimi, surxonning so'lim vohasidan Nukusga Amu orollariga chorlagan. Keling yaxshisi bu haqida Nozimaning o'zidan batafsilroq biliq olamiz.

– Nozima, surxon qizining
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti Nukus filialining muvaffaqiyatli
talabasi bo'lishiga sabab kim? yoki
nima bo'lgan?

– Bilasizmi mendagi adabiyotga, ijodga, san'at va madaniyat sohasiga bo'lgan qiziqish onam aynan, o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi bo'lganligi, uyimizda fanga oid badiiy kitoblar, ilmiy qo'llanmalar ko'p bo'lganligi uchun deb o'layman. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - deganlaridek, opam ham, men ham san'atga o'zgacha qiziqish va havas bilan ulg'aydik. Maktab davrlarimizda "Yosh kitobxon" "She'riyat gulshani", "Zulfiyaxonim izdoshlari" kabi yana bir qancha turli mavzulardagi insholar tanlovlarida qatnashardik. Onam bizlarga juda yaxshi ustoz, ijodiy ko'makdosh bo'laolganlar. Muhammad Yusuf eng sevimli shoirimiz bo'lsa, O'tkir Hoshimov sevimli yozuvchimiz edi. Menimcha, oilasida badiiy muhit bo'lgan har qanday yosh mening yo'limni tanlardi.

– Siz haqingizdagi ma'lumotlarga ko'ra yozuvchilikdan tashqari ommaviy tadbir va konsertlarda suxandonlik ham qilgan ekansiz. Boshlovchilik tomon birinchi qadamingiz qayerdan boshlangan?

– Albatta maktabimdan, o'shanda men 4-sinf edim. Onam yuqori bitiruvchi sinf o'quvchilarini "So'ngi qo'ng'iroq"

tadbiriga boshlovchilik qilishi uchun tayyorlayotganlarini ko'rib, juda qiziqsanman va havasim ortgan. Ilk bor maktabimda o'tkazilgan yangi yil bayramida, undan keyin ustozim Zuhra Ochildeyeva tashabbuslari bilan o'tkazilgan "Qizlarjon" tadbirida boshlangan.

Tumanimiz hokimiyatiga borib, mas'ul rahbarlarga to'g'ridan-to'g'ri men katta tadbirlarda boshlovchilik qilishni xohlayman, menga bir imkoniyat bering, ishonchingizni oqlayman, - deb aytganman. 8-mart xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan hokimiyat konsert tadbirida boshlovchilik qilishimga ruxsat berishdi va men ularning ishonchlarini oqladim.

Shu kundan buyon tumanimizning hech bir tadbiri qadrla ustozim, Anvarjon G'aniyev va kamina Nozima Ulug'ovasiz o'tmas edi. Garchi, tadbirma-tadbir boshlovchilik qilib, qo'shiqaytib yuradigan qiz, ba'zi qo'shtirnoq ichidagi insonlar uchun erish tuyilsada, menga ishonib, qo'llab-quvvatlab turuvchi ota-onam va yaqinlarim borligi dalda edi. Onam taniqli suxandon, teleboshlovchi Dildora Rustamovaga havas qilgan. Balki shuning uchun ham, har qanday vaziyatda men bilan birga bo'lgandir. Ahamiyatlisi eng quvonchli, unutilmas lahzalar, o'sha hech narsadan qo'rqmay maqsadlarim tomon intilgan davrlar edi...

– Sahna va ekran san'ati dramaturgiysi" yo'nalishi bo'yicha

tahsil olar ekansiz. Ma'lumki hozirgi kunda tanlagan sohangiz juda kamyob va o'ta ma'suliyatli kasblardan biri. O'quvchilar orasida sizning sohangizga qiziquvchi yoshlar bor bo'lishi mumkin. Ular ham shu sohada talaba bo'lishlari uchun qanaqa talablar mavjud? Ijodiy suhbat jarayonlariga ham to'xtolib o'tsingiz?

– Maktab o'quvchilar orasida she'r, maqola, hikoya umuman olganda turli janrlarda qalam tebratib boshlagan yoshlarga jurnalistika sohasiga o'qishga topshirishlarini maslahat beradilar. Vaholangki, yozuvchi bilan jurnalistning o'ziga yarasha farqlari bor. Shaxsan o'zim ham, oliygochlarda Dramaturgiya yo'nalishi borligini OTM ga hujjat topshirishning oxirgi kunlarida, tasodifan platforma orqali bilib qolib topshirganman. Yetmaganiga yaqin dugonam va hamkasb akamni ham Qoraqalpog'istonga shu soha bo'yicha o'qishga topshirishlariga undaganman.

Nukusda bizni juda yaxshi kutib olganlar, suhbat ham ko'ngildagidek o'tgan. Chunki ustozlarim: Qunduz Sotiboldiyeva, Farhod Muhammadsaid, Anvar G'aniyev va Dilshoda Ulug'ovalar imtihonda teatr, kino, adabiyot sohasiga oid bo'lgan savollarga juda yaxshi tayyorlashgan. Fursatdan foydalaniib, nafaqat ularga balki maktabimda, Sho'rchi tuman madaniyat markazi va Yoshlar agentligidagi barcha ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman. Adabiyotni, ijodni hurmat qilgan har bir o'quvchi mening o'rnimda bo'lishi mumkin deb o'layman.

– O'qish davomidagi qiyinchiliklar, ota-onal sog'inchi, muvaffaqiyatgacha bo'lgan qiyinchilik, qaysidir ma'noda sinovli kunlaringiz haqida nima deya olasiz?

– Javobimni qiziqarli bir voqeal bilan boshlasam... 1-marta onam kontrakt pulini to'lash uchun bankka borganlar, ma'lumotlarimni ko'rgan bank xodimi onamga shunday degan: Oho! Qiz bolani shuncha uzoq joyda kontraktga o'qitish zarurmidi, uni ustiga arzimagan san'at sohasi ekan. Onam esa, shunchaki kulib qo'yanlar. To'g'rida, unday insonlarga men ham gapirishni xohlamagan bo'lardim.

Jamiyatimizda shunaqa dunyoqarashi tor bo'lgan qatlama kamaymas ekan, ijtimoiy ongsizlik ham yechim topmaydi. Ammo,

o'sha gapni onamdan eshitish menga ham oson bo'lmagan. Balki shuning uchun ham sohamning eng yetuk mutaxasisi bo'lishga da've qilish istagim kuchlidir. Qiyinchilikka keladigan bo'lsak, oldiga yuqori maqsad qo'yan har bir talabada ham moddiy, ma'naviy yetishmovchiliklar bo'lishi muqarrar. Bunday vaqtida esa, ortiqcha harajatlarimizni chetga surib, ko'proq shaxsiy rivojanishimiz uchun sarmoya kiritishimiz lozim. Ba'zan ilmiy maqolalar, mualliflik to'plamlarni chiqarishda qiyinalib qolgan vaqtlarim bo'lgan. Onamdan pul so'rolmay siqilib o'tirgan vaqtlarim, Yaratganning karomati bilan tog'am tel qilib, hisob raqamingni tashha der edilar. Tog'am ham moddiy ham ma'naviy tomondan juda ko'p yordam bergan.

– Kelajakdagi maqsadlaringiz?
Tengdoshlaringizga qanday tavsiyalar
bergan bo'lardingiz?

– Shu kunga qadar sho'rchi tumanimizda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo'lgan biror qiz borligini bilmayman. Maqsadlarim esa, aynan "Madaniyatshunoslik" yo'nalishi bo'yicha mukofot sovrindori bo'lib, soham rivojiga qolaversa tumanim, mahallam rivojiga o'zimning oz bo'lsada hissami qo'shish. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar ortidan yuqori cho'qqilarni zabt etish. Dunyoning eng faol yoshlari qatorida bo'lishdir.

Yoshlarga maslahatim, vaqt deb atalmish bebaboylikni bekorchi, foydasiz narsalar bilan zoya ketkazmang. Yurtimiza sizdek salohiyatl, yetuk barkamol kadrlar har doim kerak. Urinib ko'rmasdan turib, o'xshamadi, qo'limdan kelmadni kabi besamar bahonalardan uzoqroq yuring.

– "Mehnat ortidan" loyihasining navbatdagi qahramoni kim bo'lishini istar edingiz?

– Loyha mavzusidan kelib chiqib, hayot sinovlari, turli qiyinchiliklar, izlanish va harakatlari evaziga jamiyatimizning ko'zga ko'ringan faol ayollari safida bo'lgan, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori, yosh tadbirkor va doktorant Iroda Berdiyeva bilan ijodiy suhbat o'tkazishingizni tavsiya qilardim.

– Savobli ishlaringiz, orzu va maqsadlaringizda zafarlar tilab qolamiz!

Ro'zigul AHMATOVA
suhbatlashdi



ANDIJON POLKASI: quvnoq, hayotbaxsh, boqiy

"Andijon polkasi" kuyi yaratilganining 100 yilligi va shu nomdagi xalq raqs ansambl tashkil etilganiga 65 yil to'ldi.

San'at millat, masofa tanlamaydi. Ammo hech qaysi kuy bizning "Andijon polkasi" chalik dunyoni zabit etgan emas. Bu kuy yangraganda hammaning yuziga tabassum yoyiladi. Afrikadan kelgan habash ham, frantsiyalik sayyoh ham jon-jon deb raqsga tushib ketadi. Kishini o'ziga tortib, sehrlab oladi bu ohang.

Aslida bu kuuning yaratilish tarixi ham qiziq bo'lgan ekan. 1920 yillarda andijonlik san'atkor Orifjon Toshmatov Qirg'izistonda bir anjumanda qatnashadi. U yerda turli millat vakillari o'zlarining sho'x kuylariga raqs tushadi. Orif garmon (garmonni yaxshi chalgani uchun unga shunday nom qo'yishgan) bir

chetda kuzatib o'tirgan ekan. Navbat andijonliklarga keladi. Orif garmon shu yerning o'zida yangi kuy yaratadi. Davrada hammani maftun etib qo'yan bu kuuning nomini so'rashsa, dabdurustdan "Andijon polkasi"da deydi. Shundan keyin Orif garmon yaratgan kuy mashhur bo'lib ketgan. Uning sho'x ritmlari yurakka borib tegadigan tantanavor, ohanglariga raqs tushmagan kishi topilmasa kerak.

1957 yil O'zbekistonda xizmat ko'sratgan madaniyat xodimi G'ofur Qodirov tashkil etgan "Andijon polkasi" yigitlar raqs dastasi bu kuyni dunyoga yoyishga katta xizmat qildi. Yaponiya, Ispaniya, Italiya, Bolgariya singari mamlakatlarda

ushbu kuy yangrasa, tomoshabinlar ham qanday raqsga qo'shilib ketganini bilmay qolgan ekanlar. Bu haqda andijonlik ustoz san'atkor Mo'minjon Abdullaev o'z xotiralarida yozgan.

Bugun maktablarda, tantanalarda farzandlarimiz bellariga belbog' bog'lab, "Andijon polkasi"ga o'ynaylik desak, qizlarimizni do'ppi, atlas ko'ylaklarda ularga jo'r bo'lishga o'rgatsak, kimning havasi kelmaydi, deysiz.

Bu ajoyib kuuning sehrini yurakdan his qilgan kishi, undan haqiqiy o'zbekona shijoat, mardlik va matonatning nafasi kelib turganini, albatta, his etadi. Har kimki o'z yurtini sevar ekan, uning qo'shig'i, kuyi, raqsini ham sevadi.

manbalar asosida
A.SODIQOV tayyorladi

Ko'rgazma

"DOHIYONA ITALIYA"

[Hasan ABDUNAZAROV](#)

Toshkent fotosuratlar uyida "Dohiyona Italiya" dizayn imkoniyatlari, umumjahon e'tirof etgan san'at dizaynining go'zalligi, o'ziga xosligi va ijodkorligi mavzusida ko'rgazma tashkil etildi.

Unda taqdim etilgan, saralangan mualliflar iste'dodi, qobiliyati va salohiyatini namoyon etgan beshta mavzu yo'nalishi bo'yicha markaziy o'rinni egallagan "inson" g'oyasini ko'rsatishga qaratilgan:

- bizning shaxsiyatimizning bir qismiga aylangan olamlar va tarixlarni tasavvur qilish va yaratishga bag'ishlangan bo'lim; - ishchanlik faoliyati;



- o'zaro hamkorlik qobiliyati: odamlar o'tasidagi munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydigan yoki rag'batlantiradigan artefaktlar; - hayot uchun yaroqlilik: o'zi va boshqalarga g'amho'rlik qilish mavzusiga asoslangan jismoniy va ruhiy yaxlitlik

mavzusi bilan bog'liq obyektlar; - mobililik: shaxsga, odamlarga va atrof-muhitga hurmat bilan barqaror tarzda harakatlanish erkinligini ta'minlaydigan obyektlar. Ko'rgazma 2024-yilning 4-yanvarigacha davom etadi.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDSHEV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV

Mas'ul kotib:
Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz



Entoni XOPKINS:

Baxt bu tanlovdır

70 dan o'tib, 80 ga yaqinlashib qolgan bir do'stimdan o'zida qanday o'zgarishlarni his qilayotganini so'radim. Umenga quyidagilarni aytdi:

1. Ota-onam, aka-uka, tur mush o'rtog'im, farzandlarim va do'stlarimni seva-seva, endi o'zimni seva boshladim.

2. Dunyo mening yelkamda emasligini angladim.

3. Meva-sabzavot sotuvchilar bilan savdolashishni to'xtatdim. Ortiqcha to'langan pul meni sindirmaydi, lekin bu kambag'al-dehqonga qizining o'qishi uchun pul to'lashga yordam beradi.

4. Men ofitsiantga ham choy-chaqa qoldiraman.

Qo'shimcha pul uning yuziga tabassum olib kelishi mumkin. Axir uning tirikchiligi menikidan ko'ra qiyinroq.

5. Men keksa odamlarga ularning bitta voqeani necha marta takrorlagani haqida aytishni to'xtatdim. Xotira ularni umr yo'llaridan qayta yurib, o'tmishni eslashga majbur qiladi.

6. Men odamlarning noto'g'ri gapirganini bilsam ham ularni tuzatmaslikni o'rgandim. Hammani mukammal qilish yuki mening zimmama emas. Dunyo mukammallikdan qimmatroqdir.

7. Barchaga saxiylik bilan iltifot ko'rsataman. Yaxshi gaplar nafaqat ularni eshituvchining, balki mening ham ko'nglimni ko'taradi.

8. Men ko'ylakdagi burma yoki dog'ga e'tibor bermaslikni o'rgandim. Shaxsiyat tashqi ko'rinishdan ko'ra aniqroq ko'zga tashlanadi.

9. Meni qadrlamaydigan odamlardan uzoqlashishga harakat qilaman. Ular mening qadrimni bilishmaydi, lekin men bilaman.

10. Kalamushlar poygasida kimdir meni quvib o'tish uchun fitnaga qo'l ursa, men sovuqqonlikni saqlayman. Chunki men kalamush emasman.

11. Men his-tuyg'ularimdan uyalmaslikni o'rganyapman. His-tuyg'ularim meni odam qiladi.

12. Men tushundimki, munosabatlarni to'xtatgandan ko'ra, xudbinlikdan voz kechish yaxshiroqdir. Mening xudbinligim meni cheklaydi, undan voz kechsam men hech qachon yolg'iz qolmayman.

13. Men har kunni oxirgi kunimdek yashashni o'rgandim. Axir u chindan ham oxirgi bo'lishi mumkin.

14. Meni baxtli qiladigan ishni qilaman. Men baxtim uchun javobgarman va qarzdorman. Baxt bu tanlovdır. Siz xohlagan vaqtida baxtli bo'lishingiz mumkin, shunchaki baxtni tanlang!

O'ichami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.
Chop etishga 25.12.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrdan ro'yxtaqga olingan.

Gazeta oyning oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi. Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.